



XALQARO DZYUDO FEDERATSIYASI BILAN IQTIDORLI SPORTCHILARNI SARALASH BORASIDA SAMARALI HAMKORLIK KENGAYTIRILADI

**O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 27-fevral kuni nufuzli
“Katta dubulg‘a” xalqaro turniri doirasida mamlakatimizda bo‘lib turgan Xalqaro dzyudo federatsiyasi
rahbari Marius Vizerni qabul qildi.**



Mazkur yirik sport tashkiloti bilan mamlakatimizda dzyudo maktabini rivojlantirish va ushbu yakkakurash turini ommalashtirish borasidagi samarali hamkorlikni yanada kengaytirish masalalari ko‘rib chiqildi.

Ta’kidlash joizki, O‘zbekiston xalqaro federatsiya faoliyatida faol ishtirok etmoqda. 2022-yilda mamlakatimizda kattalar o‘rtasida jahon chempionati, o‘tgan yili harbiy xizmatchilar o‘rtasida jahon birinchiligi muvaffaqiyatli o‘tkazildi. Parij shahrida bo‘lib o‘tgan yozgi Olimpiya o‘yinlarida Diyora Keldiyorova O‘zbekiston tarixida ilk bor dzyudo bo‘yicha oltin medalni qo‘lga kiritdi.

Federatsiya rahbari Marius Vizer mamlakatimizda sog‘lom turmush tarzini ommalashtirish va sportning barcha turlarini har tomonlama qo‘llab-quvvatlash, yoshlar, ayniqsa, qizlarni keng jalb etish, zamonaviy sport infratuzilmasini yaratish borasida amalga oshirilayotgan keng ko‘lamli islohotlarni yuqori baholadi.

Uchrashuvda sportchilar, murabbiylar va hakamlarni tayyorlashda federatsiyaning texnik ko‘magi va ekspert yordamini kengaytirish, iqtidorlarni saralashning samarali mexanizmini joriy qilish masalalariga alohida e’tibor qaratildi.

Bundan tashqari, mamlakatimiz hududlarida dzyudo bo‘yicha xalqaro musobaqalarni muntazam o‘tkazib borish taklifi bildirildi.

Uchrashuv yakunida O‘zbekiston Prezidenti milliy dzyudo maktabini rivojlantirishga qo‘shgan katta hisssasi uchun Xalqaro dzyudo federatsiyasi rahbari Marius Vizerga davlatimizning yuksak mukofoti — “Do‘stlik” ordenini topshirdi.

O‘ZA

SUDLAR FAOLIYATI YAXSHILANADI, OCHIQLIK VA RAQAMLASHTIRISH JARAYONI JADALLASHTIRILADI

**Prezident Shavkat Mirziyoyev 27-fevral kuni sud faoliyatini yanada yaxshilash, ochiqlik va
raqamlashtirish darajasini oshirish chora-tadbirlari yuzasidan yig‘ilish o‘tkazdi.**

Inson manfaatlarini, qonun ustuvorligini ta’minlaydigan bu sohani takomillashtirish davlatimizning doimiy e’tiborida. So‘nggi sakkiz yilda sudlarga doir 70 ga yaqin qonun, farmon va qaror qabul qilindi. Ularning moddiy-texnik bazasi yaxshilandi.

Bular aholi va tadbirkorlarning masalalarini hal etib, adolatni qaror toptirishga xizmat qilyapti. O‘tgan yili sudlarda 3 milliondan ortiq masala ko‘rib chiqildi. Bu — aholining huquqiy ongi oshib borayotganidan dalolat.

Hozirgi kunda sudga ariza berish, sud ishining holatini kuzatish, sud hujjatlaridan elektron nusxa olish kabi 14 ta xizmat raqamlashgan. Oliy sudning my.sud.uz portalida xizmatlar va undan foydalanuvchilar soni ko‘payib bormoqda. Shu paytgacha 17 millionga yaqin sud ishi axborot tizimlari orqali yuritilgan, 15,5 millionta ish sudyalarga inson omilisiz taqsimlangan.

2024-yil 1-noyabrden boshlab sudlarning ichki hujjatlar aylanmasi to‘liq elektron

shaklga o‘tkazildi. Natijada qisqa davrda davlat byudjetidan 638 million so‘mlik xarajalar iqtisod qilindi.

Endi buni izchil davom ettirish, sudlar faoliyati samaradorligini oshirish kerak. Xususan, sud muhokamasining taxminiy natijasi va ketadigan xarajatlarni oldindan aniqlab berish, huquqiy yordam bo‘yicha virtual maslahatchini yaratish, tayinlangan jarimalarni onlayn kuzatish va elektron shaklda to‘lash kabi imkoniyatlar odamlarga katta qulaylik yaratadi. Bugun rivojlanayotgan sun‘iy intellektdan foydalanib, bu kabi ko‘plab yangiliklarni joriy etish mumkin.

Shu bois, yig‘ilishda sud faoliyatini raqamlashtirish darajasini oshirishga qaratilgan chora-tadbirlar muhokama qilindi.

Taqdimotga ko‘ra, sud ishlarini yuritishda qog‘oz shaklidan butunlay voz kechish maqsadida “Raqamli sud” konsepsiyasi amalga oshiriladi. Buning uchun Oliy sud huzurida Axborot texnologiyalari markazi tashkil etiladi. U sudlarga zarur bo‘lgan

axborot tizimlari va dasturiy mahsulotlar yaratish, sun‘iy intellektni joriy etish hamda axborot xavfsizligini ta’minlash bilan shug‘ullanadi. Tadbirkorlik subyektlari bilan sudlar o‘rtasida elektron ma’lumot almashish yo‘lga qo‘yiladi. Ishlarni ko‘rib chiqish tezkorligi oshadi.

Davlatimiz rahbari buning uchun sudlar va barcha aloqador tashkilotlarning axborot tizimlari integratsiyasi muhimligini, qulayliklarni odamlar sezishi kerakligini ta’kidladi.

Bu ishlarni kengaytirish, huquq-tartibot idoralari ma’lumotlarini sudlar bilan samarali bog‘lash bo‘yicha ko‘rsatmalar berildi.

Har yili sudlarda 1 millionga yaqin nizosiz ishlar ham ko‘rilyapti. Masalan, o‘tgan yili fuqarolik sudlarida kommunal qarzdorlik bo‘yicha 200 mingga yaqin shunday ish ko‘rilgan. Aslida, buni notariyusda ham hal qilsa bo‘ladi. Shu nuqtayi nazardan, nizosiz ishlarni ko‘rib chiqishni tegishli idoralarga o‘tkazish taklifi bildirildi.

Konstitutsiyaga ko‘ra, Oliy sudga qonunchilik tashabbusi vakolati berilgan. Shunga asosan, tadbirkorlik, investitsiya, infratuzilma, yer, soliq, kredit, mehnat munosabatlari kabi eng ko‘p uchrayotgan masalalarni tahlil qilib, har oyda hukumatga, har chorakda parlamentga taklif kiritib borish muhimligi ta’kidlandi.

Sohaga oid qonunlarni xalqaro standartlarga moslashtirish, sudni yanada xalqchil qilish, tizimni moliyalashtirish bo‘yicha qonunlar zarurati qayd etildi.

Iqtisodiy sud tizimini isloh qilish, bu borada yagona sud amaliyotini yo‘lga qo‘yish masalasiga to‘xtalib o‘tiladi.

Sud binolarida odamlar uchun zarur sharoit yaratish bo‘yicha mutasaddilarga topshiriqlar berildi.

Sudyalarni malakasini, jumladan, axborot texnologiyalari bo‘yicha bilimini oshirish, yosh kadrlarni shu jihatlardan yetuk etib tayyorlash zarurligi ta’kidlandi.

O‘ZA

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining QARORI MUBORAK RAMAZON OYINI MUNOSIB TARZDA O‘TKAZISH TO‘G‘RISIDA

Keyingi yillarda mamlakatimizda vijdon erkinligini ta’minlash, muqaddas islom dinining insonparvarlik mohiyatini o‘zida mujassam etadigan qadriyat va an‘analarni bezavol saqlash hamda kelgusi avlodlarga yetkazish, yurtimizda hukm surayotgan tinchlik-osoyishtalik, millatlar va dinlararo totuvlik va hamjihatlik muhitini mustahkamlash, ko‘makka muhtoj, nogironligi bo‘lgan va ehtiyojmand insonlarni har tomonlama qo‘llab-quvvatlash borasida ulkan ishlar olib borilmoqda. Bu kabi ezgu amallar muborak Ramazon oyida ayniqsa yorqin namoyon bo‘lmoqda.

Xalqimiz uchun azaldan mehr-oqibat, shukronalik va bag‘rikenglik timsoli bo‘lib kelgan muborak Ramazon oyini munosib kutib olish va yuqori saviyada o‘tkazish maqsadida:

1. 2025-yilda muborak Ramazon oyining boshlanishi **1-mart** kuniga to‘g‘ri kelishi haqidagi O‘zbekiston musulmonlari idorasining axboroti ma’lumot uchun qabul qilinsin.

2. Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahri hokimliklari Din ishlari bo‘yicha qo‘mita, Ijtimoiy himoya milliy agentligi, O‘zbekiston mahallalari uyushmasi, O‘zbekiston faxriylarining ijtimoiy faoliyatini qo‘llab-quvvatlash “Nuroni” jamg‘armasi va boshqa hamkor

tashkilotlar bilan birgalikda hududlarda Ramazon oyini **milliy an‘ana va qadriyatlarga mos tarzda** o‘tkazishga doir chora-tadbirlarni amalga oshirsin.

Ushbu fazilatli oyda **“Ramazon — saxovat, birdamlik va bag‘rikenglik oyi”** g‘oyasi asosida:

ehtiyojmandlar hamda ilm-ma’rifat yo‘lida izlanayotgan yoshlarga yordam berish bo‘yicha tashabbuslarni qo‘llab-quvvatlashga;

oilaviy rishtalarni mustahkamlash, mahallalarda o‘zaro tushunish va ishonch muhitini kuchaytirish hamda hurmat va mehr-oqibat qadriyatlarini tarannum etishga;

atrof-muhitni asrash, muqaddas qadamo, ziyoratgoh va qabristonlarni obodonlashtirish, ko‘chatlar ekishga hamda Ramazon oyi bilan bog‘liq tadbirlarda me’yorga amal qilish va isrofgarchilikka yo‘l qo‘ymaslikka alohida e’tibor berilsin.

3. O‘zbekiston Milliy teleradiokompaniyasi, O‘zbekiston Milliy axborot agentligi va boshqa ommaviy axborot vositalariga Ramazon oyini o‘tkazish bilan bog‘liq tadbirlarni keng yoritish tavsiya etilsin.

4. Mazkur qarorning ijrosini nazorat qilish O‘zbekiston Respublikasi Bosh vaziri A.N.Aripov va O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining maslahatchisi R.Q.Davletov zimmasiga yuklansin.

**O‘zbekiston Respublikasi
Prezidenti**

SH. MIRZIYOYEV

Toshkent shahri,
2025-yil 27-fevral

IKKI TOMONLAMA MUNOSABATLAR RIVOJIGA YANGI SUR‘AT BAG‘ISHLAGAN TASHRIF

**Xalqaro ekspert doiralari vakillari Pokiston
Bosh vazirining shu yil
25-26-fevral kunlari O‘zbekistonga
rasmii tashrifi haqida**

O‘zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyev va Pokiston Bosh vaziri Shahboz Sharif o‘rtasida Toshkent shahrida bo‘lib o‘tgan muzokaralarning strategik ahamiyati

va uning samarali natijalari xalqaro ijtimoiy-siyosiy, ishbilarmon va ekspert hamjamiyatlarining diqqat markazida bo‘lib turibdi.

▶ Davomi 2-beta

Xushxabar



Hakim YO‘LDOSHEV olgan suratlardir.

IMKONIYAT – G‘ALABA SARI YO‘L DEMAK

TOSHKENTDA DIYORA KELDIYOROVA DZYUDO KLUBI OCHILDI

Prezidentimiz, Milliy Olimpiya qo‘mitasi raisi Shavkat Mirziyoyev boshchiligidagi joriy yil 13-fevral kuni olimpiya va paralimpiya harakati, ixtisoslashtirilgan va ommaviy sportni yangi bosqichga olib chiqish hamda aholi jismoniy faolligini oshirish chora-tadbirlari bo‘yicha videoselektor yig‘ilishi o‘tkazildi. Unda sport sohasini shunchaki o‘yin va musobaqalar emas, millat genofondi, mamlakat

qudrati va obro‘-e’tiborini butun dunyoga tarannum etadigan eng ta’sirchan vosita, eng ustuvor vazifa deb bilish shartligi ta’kidlandi. Shuningdek, har bir maktabda yakkakurash va jamoaviy olimpiya sport turlari bo‘yicha kamida bittadan to‘garak bo‘lishi kerakligi aytiladi.

▶ Davomi 2-beta



Suv masalasi bugun nafaqat O‘zbekistonda, balki butun dunyoda tobora dolzarblashib borayotgani haqiqat. Chunki iqlim o‘zgarishi, turli ekologik holatlar, tabiatga bog‘liq bo‘lmagan vaziyatlar suv qadrini oshirib, asrashni taqozo etyapti. Shu bois, dunyo hamjamiyati, mamlakatlar, nufuzli xalqaro tashkilotlar hayot manbaini tejashga e’tibor qaratib, aniq maqsadli choralar ishlab chiqiyapti. Chunki kelgusi natija uchun choralar hozir kerak.

O‘zbekistonda suv tanqisligi 2030-yilga borib 15 milliard kub metrim tashkil qilishi mumkin. Mamlakatimiz hududida ishlatiladigan suvning asosiy qismi qo‘shni davlatlarda shakllanib, oqib keladi. Yillik yog‘ingarchilik miqdoriga qarab suvning 15-20 foizi yurtimiz hududida hosil bo‘ladi, xolos. Afsuski, so‘nggi yillarda mintaqada yog‘ingarchilik kam bo‘layotgani sababli yirik daryo havzalarida, kichik daryo va soylarda suv sarfi kamayib borayotir. Buni yurtimizda ilgari ishlatilgan yillik 60-64 milliard

kub metr o‘rniga suv ta’minoti 51-53 milliard kub metrgacha kamayganidan ham anglash qiyin emas. Biroq davlatimiz rahbarining oqilona siyosati tufayli mintaqam mamlakatlari o‘rtasida transchegaraviy suv resurslarini boshqarish do‘stlik, yaxshi qo‘shnichilik va o‘zaro manfaatlarini hurmat qilish ruhida amalga oshirilmoqda. Bu esa qo‘shnilar bilan suv xo‘jaligi sohasida yig‘ilib qolgan ko‘p yillik muammolarni oson hal qilish imkonini bermog‘da.

▶ Davomi 3-beta

